

---

## **TARJIMA VA UNING TURLARI**

**Hazratqulova Ferangiz Farrux qizi**

*1-bosqich talabasi, Tarjimonlik fakulteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.*

**Bozorova Vasila Ilhom qizi**

*Ilmiy rahbar: Ingliz tili amaliy tarjima kafedrasi stajor-o'qtuvchisi,  
Tarjimonlik fakulteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.*

**Annotatsiya:** Tarjima – bu bir tildagi matnni yoki nutqni boshqa tilga ma'no va uslubni saqlagan holda o'girish jarayonidir. U tilshunoslik, madaniyat va kommunikatsiya sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada tarjimaning asosiy turlari, ularning xususiyatlari va zamonaviy tarjima texnologiyalari tahlil qilinadi. Matn tarjimasi, og'zaki tarjima, adabiy va texnik tarjima, shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi tarjima vositalari haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** tarjima, tarjima nazariyasi, matn tarjimasi, og'zaki tarjima, adabiy tarjima, texnik tarjima, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan tarjima.

Tarjima – bu bir tildagi matnni yoki nutqni boshqa tilga ma'no va uslubiy jihatdan imkon qadar aniq hamda to'gri yetkazish san'ati. U turli sohalarda, jumladan, adabiyot, ilm fan, huquq, iqtisodiyot, texnika va boshqa ko'plab yo'naliishlarda qo'llaniladi. Bugungi globallashuv davrida tarjima xalqlar o'rtaсидаги madaniy, iqtisodiy va ilmiy aloqalarni rivojlantirishda muhim rol o'yamoqda.

### **Tarjimaning turlari**

Tarjima jarayoni turli maqsadlarga qarab bir necha turlarga ajratiladi. Ular orasida ang asosiyatlari quyidagilar:

Badiiy tarjima- adabiy asarlarning tarjimasi bo'lib, bunda matnning nafaqat ma'nosи, balki uslubiy xususiyatlari ham saqlanib qolishi lozim.

Ilmiy -texnik tarjima-ilmiy maqolalar, texnik hujjatlar va tadqiqot ishlarini tarjima qilish bilan bog'liq.

Huquqiy tarjima- yuridik matnlar, shartnomalar va qonun hujjatlarini o'z ichiga oladi.

Sinxron tarjima- jonli nutqni bevosita tinglovchilar uchun real vaqt rejimida tarjima qilish

Yozma tarjima- yozma matnlarni bir tildan boshqa tilga o'girish

Olimlar tarjimani turli fikrlar bilan ifodalaydilar

Q. Musayevning fikriga ko'ra, insoniyat faolyatining murakkab shakli bo'lmish tarjima- bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani, uning shakli va mazmun birligini saqlagan holda, o'zga til vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir.

I. G'afurov esa "so'zlovchi nutqi, muallifning asari, turli hujjatlar va ma'lumotlarni bir tildan ikkinchi tilga o'girish yiki o'tkazish, boshqa tilga ularni tushunarli qilish tarjima deb ataladi.", deb ta'kidlaydi. J. Katfordning fikricha esa "tarjima matn materialini boshqa tildagi matn materialining ekvivalenti bilan almashtirishdir."

R. Belning ta'kidlashicha "tarjima asliyat tilida ifodalangan narsaning semantik va stilistik ekvivalentiligini saqlagan holda tarjiam tilida ifodalashdir.

Olimlarning tarjimaga bergen tavsif va ta'riflariga yondashgan holda tarjimani quyidagicha ifodalash mumkin: tarjima asliyat matndagi og'zaki yoki yozma shaklidagi har qanday so'z, gap, matn va hokazolarni, asliyat va tarjima tillarining lingvistik: sintaktik, semantic, stilistik xususiyatlarini hisobga oлган holda tarjima tiliga olib o'tish jarayonidir.

Tarjima jarayonida tarjimonning nutqiy harakatlari xususiyatiga ko'ra ikkita katta sinfga ajratish mumkin. Birinchi tasnif asl nusxaning janr va stilistik xususiyatlari bilan, ikkinchisi- yozma va og'zaki shakldagi nutq harakatrining psixologistik xususiyatlari bilan bog'liq.

Yozma tarjima- bu ham asl matn, ham tarjima matni qat'iy bosma matnlar bo'lib tarjimon eng tog'ri tarjimani ta'minlash uchun tarjima jarayonida ularga kerak bolganda ko'p marta murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan tarjima turidir. Ya'ni har qanday matn yozma yoki og'zaki matn, asarning yozmasi tushuniladi.

Og'zaki tarjima- og'zaki bayonning asosiy ma'nosi bir tildan ikkinchi tilga o'tkaziladigan tarjima turi. Har qanday material ( yozma yoki og'zaki matn asar) ning og'zaki shaklda tarjimasidir.

Manba tili va tarjima tilining o'rniga ko'ra tarjima keying bosqichda quyidagi turlarga ajratiladi.

- Og'zakidan og'zakiga – og'zaki eshitiladigan axborotning og'zaki tarjimasidir.
- Yozmadan-yozmaga – yozma matnning yozma tarjimasi.
- Yozmadan – Og'zakiga- yozma matnni og'zaki tarzda tarjima qilish.

Hozirgi kunda tarjimaning boshqa turlari bilan bir qatorda og'zaki tarjimaning sinxron va ketma-ket turlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Og'zakidan-og'zakiga tarjima ham o'z navbatida bir qancha turlarga ajratiladi.

Sinxron tarjima

Ketma-ket tarjima

Shivirlab tarjima qilish

Vizual tarjima.

Sinxron tarjima

Sinxron tarjima og'zaki tarjimaning eng qiyin hamda muhim turi hisoblanadi. Unda tarjimon ketma-ket tarjimadan farqli o'laroq asliyat tilidagi notiq nutqini bir vaqtning o'zida tarjima tiliga tarjima qila boshlaydi. Sinxron tarzda tarjima qiluvchilar sinxron tarjimon yoki sinxronist deb ataladi. Sinxron tarjimon tarjima jarayonida tarjima qilish uchun belgilgilangan joyda o'tiradi va qulqoq eshitgich orqali so'zlovchini tinglaydi. So'ng tinglash chog'ida mikrofon orqali tarjima qiladi.

Sinxron tarjima imo-ishoralar orqali ( kar-soqovlar uchun) ham bajarilishi mumkin.

Ketma-ket tarjima

Ketma-ket tarjima qilish bu bir tildagi og'zaki axborot berilgandan so'ng uni boshqa tilga tarjima qilishdir. Tarjimon so'zlovchining umumiy fikrlari yoki abzasni tinglaydi va

tinglash chog'ida yozib olingen eslatmalar orqali nutqni tarjima qiladi. Shunday qilib, ketma-ket tarjima so'zlovching nutqini tinglagandan so'ng bajariladi.

#### Shivirlab tarjima qilish

Bunda tarjimon reseptor yonida turib yoki o'tirib, past ovozda (shivirlab) notiqning nutqini tarjima qiladi. Og'zaki tarjima tarixida xalqaro konferensiya va anjumanlarda dastalb og'zaki tarjimalar aynan shu yo'l orqali tarjima qilingan.

#### Vizual tarjima

Ba'zi tarjimonlar vizual tarjima qilishdan oldin o'sha nutqning yozma shaklini ko'rib chiqadi. Tarjima qilish uchun ajratilgan joyda, matnni ko'rib tarjima qilish, yozma matnni o'qishga o'xshab emas, balki og'zaki nutq singari eshitilishi kerak.

Vizual tarjima qilish deb bir tilda yozilgan matnni boshqa tilga tarjima qilib o'qishga aytiladi. Tarjimaning bu shaklida, tarjimon ilmiy va texnik majlislarda qiyinchiliklarga duch keladi. Yozma material tarjima jarayonida yuqori tezlikda o'qilgan bo'lsa ham, tarjimon shu orada bir qancha vazifalarni bajarishi kerak:

1. So'zlovchining gaplarini to'gri tushunganini tekshirishi
2. axborotni yakunlash.
3. tarjima qilish kerak bo'lgan matnni ko'rib tarjima qilish.

Hozirgi kunda tarjima sohasiga qaratilgan e'tibor sezilarli darajada oshgan. Bu, ayniqsa, kitoblar, hujjatlar, filmlar va ilmiy materiallar tarjimasida yaqqol ko'rinoqda. Texnologiyaning rivojlanishi natijasida onlayn tarjima vositalari va sun'iy intellektga asoslangan dasturlar ham keng qo'llanmoqda.

#### E'tibor berilayotgan jihatlar:

1. Adabiy tarjimalar rivojlanmoqda – Ko'plab xorijiy asarlar o'zbek tiliga o'girilmoqda. Masalan, klassik adabiyot, zamonaviy badiiy asarlar va bestsellerlar tarjima qilinmoqda.
2. Rasmiy va ilmiy tarjimalarga talab oshdi – Xalqaro hamkorlik ortib borayotgani sababli hujjatlar, ilmiy maqolalar va texnik matnlarning tarjimasi dolzarb bo'lib qoldi.
3. Multimedial tarjimalar rivojlanmoqda – Filmlar, seriallar, video va podkastlar o'zbek tiliga tarjima qilinmoqda, bu esa ko'p tilli auditoriyani qamrab olishga yordam bermoqda.
4. Sun'iy intellekt vositalari – Google Translate, DeepL kabi xizmatlar takomillashgan, ammo inson tarjimonlari hanuz ustunlik qilmoqda.

Shu bilan birgalikda bir qancha kamchiliklari mavjud.

#### Kamchiliklar:

1. Sifat muammosi – Ko'plab tarjimalarda sintaktik va semantik xatolar uchraydi. Ayniqsa, badiiy va ilmiy matnlarni to'g'ri ifodalash muammosi bor.
2. O'zbek tiliga e'tibor yetarli emas – Ko'pgina tarjimalar rus yoki ingliz tilidan amalgalashiriladi, biroq o'zbek tilidagi mukammal tarjimalar yetishmaydi.
3. Texnik tarjimalar zaif – Ilmiy va texnik sohalar bo'yicha sifatli tarjimonlar kam, ba'zi terminlar noto'g'ri yoki noaniq tarjima qilinmoqda.
4. Madaniy kontekst e'tibordan chetda qoladi – Ba'zi tarjimalar matnning asl ruhini yo'qotadi, chunki tarjimon madaniy tafovutlarni hisobga olmaydi

Hozirgi kunda tarjima sohasiga e'tibor oshgan bo'lsa-da, hali hal qilinishi kerak bo'lган muammolar mavjud. Texnologiyalar rivojlanishi tarjima jarayonini osonlashtiryapti, ammo inson omili hamon muhim. Kelajakda tarjimalarning sifati va aniqligini oshirish uchun mutaxassislar tayyorlash va tilga e'tiborni kuchaytirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, tarjima turli sohalarda muhim ahamiyat kasb etib, tillar va madaniyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi. Badiiy, ilmiy-texnik, huquqiy va sinxron tarjimalar turli ehtiyojlarga xizmat qiladi. Hozirgi kunda tarjima sohasi rivojlanib, sun'iy intellekt vositalari keng qo'llanmoqda, ammo tarjima sifatini oshirish, texnik va madaniy jihatlarga e'tibor berish zarur. Kelajakda malakali tarjimonlar tayyorlash va tarjima jarayonining aniq hamda tushunarli bo'lishini ta'minlash muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Musayev Q. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2015.
2. G'afurov I. Tarjima asoslari. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2018.
3. G'aybullayev Salomov Til va tarjima , Toshkent-1966
4. U.Yo'ldoshev. Tarjima nazaryasi, o'quv qo'llanma, Samarqand-2021
- 5.O'zbekistonda tarjima sohasi rivoji haqida ilmiy maqolalar va internet manbalari.
6. Jo'rayev SH. Tarjimashunoslik: Nazariya va amalyot.- Toshkent: O'zbekiston, 2020
7. Qo'chqorov M. Tarjima jarayoni va uning xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2016.
8. Sayfullayev U. O'zbek tilshunosligida tarjima masalalari. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019.
9. Internet manbalari va ilmiy maqolalar (Google Scholar, ResearchGate, Ziyonet va boshqalar).